XALQ DEPUTATLARI G‘ALLAOROL TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 30-avgust VI-70-113-3-45-K/24 G‘allaorol tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 8 iyuldagi PQ-245-sonli qarorining ijrosini ta’minlash uchun, tumandagi “Yoshlar sanoat” zonasining bosh rejasini ishlab chiqish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy hokimiyat to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6 - moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

qaror qiladi;

1. Tuman moliya bo‘limi (M.Turdimurodov)ga 2024 yilda “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushumlar hisobidan, **25,0 (yigirma besh) mln.so‘m** mablag‘ni tuman hokimligiga ajratish vazifasi topshirilsin.

2. Tuman hokimligi (X.Jo‘rayev) tuman mahalliy byudjetidan ajratilgan mablag‘dan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman g‘aznachilik xizmati bo‘linmasi (B.Sattarov) tuman mahalliy byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni tegishli hisob raqamga o‘z vaqtida moliyalashtirishni ta’minlasin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish, xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish” doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosarlari T.Qo‘chqorov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi OQBOYEV JALOLITDIN JAMOLOVICH